

Yangicha tafakkur - yangilik va yaxshilik mevasi

Institutimizning "Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash" kafedrasining bir qator professor-o'qituvchilari 18 -noyabr kuni O'rta Chirchiq tumanidagi "Yoriq" MFY hududidagi 15 - umumiy o'rta ta'lim maktabida tashkil etilgan tadbirda ishtirok etdilar. Jumladan, Tadbirda, "Yoriq" MFY aholisi vakillari, nuroniy otaxon va onaxonlar, tuman hokimligi vakillari, xotin-qizlar kengashi a'zolari, maktab o'qituvchi va o'quvchilari qatnashdilar. Tadbirni " Yoriq" MFY raisi F.A.Turg'unov ochiq deb e'lon qilganidan so'ng, O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi ijro etildi.Tadbir o'ta ko'tarinki kayfiyatda va karantin qoidalariga rioya qilgan holda o'tkazildi. Tadbirda "Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash" kafedrasini mudiri, dotsent I.Xudaev "Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun mohiyati va ahamiyati" mavzusida ma'ruza qilib yig'ilganlarga mamlakatimizda keyingi yillarda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev tomonlaridan olib borilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy sohalardagi islohotlarning tub mohiyati, qo'lga kiritilayotgan ulkan yutuqlar to'g'risida alohida-alohida to'xtalib o'tdi.Tadbirda 15-maktab direktori Nazokat Suyunboeva, " Yoriq" MFY faoli Umida Mamatqulova, "Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash" kafedrasining dotsenti F.Bekchanovlar so'zga chiqib mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning ahamiyati to'g'risida gapirdilar. 15-maktab direktori o'rinbosari Aziza Axmedova 18-noyabr O'zbekiston Respublikasi Bayrog'i qabul qilingan kun bilan yig'ilganlarni muborakbod qilib zalda yig'ilgan ota-onalar va mehmonlar o'rtasida "BAYROG'IM-FAXRIM" mavzusida viktorina o'tkazdi. G'oliblar " Yoriq" MFYning faxriy yorliqlari va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.Tadbir badiiy qismga ulanib ketdi, badiiy qismda O'rta Chirchiq tumani badiiy havaskorlari va 15-maktab badiiy to'garaklarining ishtirokchilari hamda O'rta Chirchiq tumani ixtisoslashgan sport maktabi sportchi yoshlari o'z chiqishlari bilan yig'ilganlarni xushnud qildilar. Tadbirda o'zbek, qozoq, rus, ingliz tillarida kuy, qo'shiqlar ijro etib, she'rlar o'qildi. Tadbir juda ko'tarinki ruhda va yuksak saviyada o'tkazildi.



TIQXMMI matbuot xizmati